

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A.A. Eshtayev

I.A. Axmedov

M.T. Aliyeva

TURIZMNI REJALASHTIRISH

(O'QUV QO'LLANMA)

TOSHKENT – 2007

Ma'sul muharrir: prof. A.M. Abduvohidov

Taqrizchilar: dots. D.M. Li, dots. A.N. Norchaev

A.A. Eshtayev, I.A. Axmedov, M.T. Aliyeva. Turizmni rejalashtirish: O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 168 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada kompleks, barqaror, boshqariladigan bozor munosabatlari sharoiti asosida turizm rejalashtirishning asosiy tamoyillari berilgan. Mahalliy, milliy va hududiy turizmdan rejalashtirishning tamoyillari va metodlarini qo'llash orqali sezilarli darajada iqtisodiy daromad olinishiga alohida e'tibor berilgan. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy mutahassisliklari bo'yicha bilim olayotgan talabalar, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, turizm kasb-hunar kolejlari o'quvchilari hamda turizm sohasi bilan shug'ullanayotgan barcha xodimlarga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Kitobxonlarning bu boradagi barcha fikr-mulohazalari va takliflari mualliflar tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

Ответственный редактор: А.М. Абдувахидов

Рецензенты: доц. Д.М. Ли, доц. Н.А. Норчаев

А.А. Эштаев, И.А. Ахмедов, М.Т. Алиева. Планирование туризма: Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2007.- 168 с.

В данном учебном пособии рассмотрены основные принципы планирования туризма в условиях комплексных, стабильных и управляемых рыночных отношений. Основное внимание уделено особой роли принципов и методов планирования туризма в увеличении прибыли местного, национального и регионального туризма. Учебное пособие предназначено для всех студентов высших учебных заведений по экономическому направлению, соискателям, учителям, профессорам, ученикам средних специальных колледжей туризма, а также всем работникам, занимающимся в туристской отрасли.

В учебном пособии могут быть допущены несколько ошибок. По этому поводу со стороны авторов с благодарностью принимаются рассуждения и предложения читателей.

Responsible editor: prof. A.M. Abduvahidov

Reviewers: dots. D.M. Li, dots. A.N. Norchaev

A.A. Eshtayev, I.A. Axmedov, M.T. Aliyeva. Tourism planning. - Tashkent, TSEU, 2007. – 168 p.

The manual is about main principles of tourism planning in complex and managable market economy. Attention is given to significant role of principles and methods of planning tourism in context of maximization of profit in local, national and regional tourism. The manual is intended for all students of high education who study in an economic direction, to competitors, teachers, professors, pupils of average special colleges of tourism, and also all workers, engaged in tourist branch.

The manual can be admitted some mistakes. In this occasion from authors with gratitude reasoning and offers of readers are accepted.

KIRISH

Rejalashtirish u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning mahsuli emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning tabiiy, ob'ektiv jarayonidir. Rejali iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishlari, albatta, davlat darajasida shakllanadi. Bu ilmiy-texnik va ijtimoiy dasturlar, mamlakat byudjeti, mudofaaga, davlat apparatini saqlab turishga ketadigan xarajatlardir. Bozor sharoiti raqobat kurashi bilan xarakterlanishi bois, bunday sharoitlarda har qanday tijorat tashkilotlarining samarali faoliyat ko'rsatishi istiqbolni belgilash va faoliyatni rejalashtirishga asoslanishi zarur.

Turizmni rejalashtirish – turistik resurslarning maqsadi, ularni saqlash va muvofiqlashgan holda o'zaro hamkorlik qilishini, turistik mahsulotni ishlab chiqarish va zamonaviylashtirish, o'tkazish va sotish, foyda olish bo'yicha ishlarni bajarishning hajmi, usullari, ketma-ketligi va muddatini nazarda tutadigan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishdir.

Rejalashtirishning ob'ektiv asosi turistik korxona rejasining barcha tadbirlari amalga oshirilishini doimiy nazorat qilishni ta'minlashdir.

Turizmni rejalashtirish – iqtisodiy fan bo'lib, bu tsikldagi bir qator fanlar, ya'ni tahlil qilish va istiqbolni belgilash, investitsiyalash va moliyaviy ta'minlash, menejment va marketing, narxlarni tashkil qilish, soliqqa tortish, buxgalteriya hisobi va sh.k.lar bilan o'zaro bog'langan. Bu fanning asosiy vazifalari – turizmni rivojlantirish, turistik siyosat yo'nalishlari va istiqboldagi loyihalarini shakllantirish bo'yicha tajribalarning jahondagi va mamlakatimizdagi nazariy qonuniyatlari va kontseptsiyalarini o'rganishdan iborat.

Qo'lingizdagi ushbu o'quv qo'llanmada bayon etilgan asosiy qoidalar quyidagilardan iborat: milliy, mintaqaviy va firma ichidagi rejalashtirishning metodologik asoslari, turizmni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishning strategik jihatlari va asos bo'luvchi kontseptsiyalari, O'zbekiston Respublikasi turistik bozorining xususiyatlarini hisobga olgan holda uni moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash.

Qo'llanmada turizmning turlari va uni rivojlantirish shakllaridan kelib chiqib, turizm sohasidagi rejalashtirishning metodologik xususiyatlari va jihatlari yoritilgan, turistik bozorni moliyaviy ta'minlashni rejalashtirish va uning marketingi masalalari qarab chiqilgan.

Mazkur o'qitish kursi o'z ichiga nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlariga, tegishli me'yoriy hujjatlarga, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga va «Turizm rivojini rejalashtirish» Namunaviy o'quv dasturiga asoslanadi.

Fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

turizm sohasidagi rejalashtirishning nazariy kontseptsiyalarini, metodologik asoslarini va printsiplarini o'rganish;

turistik faoliyatni rejalashtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni aniqlash;

iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rejalashtirish printsiplarini, turizmni rivojlantirish rejalarini texnik-iqtisodiy va huquqiy asoslashni o'rganish;

turistik faoliyatning samaradorligini baholash metodlari va ko'nikmalariga ega bo'lish;

biznes-rejalar tadbirlarini asoslash va ishlab chiqishda, ularning bajarilishini nazorat qilishda amaliy ko'nikma o'rttirish.

«Turizm rivojini rejalashtirish» kursi quyidagilarga o'rgatishi kerak;

1. Turizmni rejalashtirish barcha bosqichlarda uning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bu jarayonni boshqarishni ta'minlashning zaruriy sharti ekanligini anglash.
2. Turizmnin turli xillari va shakllarini rivojlantirishni rejalashtirishda uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-jihatlarini va xususiyatlarini hisobga olish.
3. Biznes-rejalar ishlab chiqish, ularni mablag' bilan ta'minlash va belgilangan muddatlarda bajarilishini amalga oshirish.
4. Turizmning barqaror rivojlanishini mablag' bilan ta'minlashni rejalashtirish, turistik bozordagi talab va taklifni taqqoslash va muvofiqlashtirish.
5. Bozorda turistik mahsulotning o'tishi va sotilishi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.
6. Matematik usullar hamda kompyuter texnikasidan foydalangan holda turistik biznes korxonalarida rejali-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish.